

“ HUQUQIY MADANIYAT – TARAQQIYOT MEZONI”

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik
fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi
223-guruh talabasi Xolmurodova
Sevinch Jumanazarovna*

Anotatsiya: *Huquqiy madaniyatning jamiyatdagi o'rne va uning ta'siri, mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun olib borilayotgan islohotlar haqida umumiy ma'lumotlar .*

Kalit so'zlar: *huquqiy madaniyat , huquqiy ong, demokratiya , shaxsiy huquqlar , diskriminatsiya , korrupsiya , ijtimoiy adolat , tenglik , BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi .*

Biz bilamizki , hayotimiz davomida ko'p shu atamalarni eshitamiz “ huquqiy madaniyat”, uni yuksaltirish kerakligi haqida , lekin aslida ushbu atama qanday ma'noni anglatishini bilmaymiz . Natijada bizda bir qancha savollar paydo bo'lishi tabiiy , masalan mana bunaqa savollar : huquqiy madaniyat nima ? Uni qanday rivojlantirish mumkin ? Uning asosini nima tashkil qiladi ? Uning jamiyatga qanday ta'siri bor ? va boshqa shu kabi savollar . Keling endi har bir savolga javob topsak .

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi , huquqqa nisbatan ongli munosabati , huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir . Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyating uzviy tarkibiy qismidir . Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish , yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etish , huquqiy normalarni bajarish , huquqiy talablarni bilish hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga oid barcha masalalar kishilarning huquqiy ustqurilmasidagi huquqiy madaniyat hodisasi , huquqiy hayotning darajasi alohida o'rin tutadi . Huquqiy madaniyatning asosini kishilarning huquqiy ongi tashkil etadi .

Huquqiy ong – bu jamiyatda kishilarning huquq to'g'risidagi qarashlaridir , chunki huquqiy normalar jamiyatning iqtisodiy , siyosiy va madaniy hayotida kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi . Huquq normalari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy ong yani kishilarning huquqni bilishligi , huquq normalarini amalga oshirishi katta ahamiyatga egadir . Huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan – falsafa , siyosat , diniy , estetik , huquqiy ong shakllari ajratib ko'rsatiladi . U jamiyatda ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib hisoblanadi , chunki huquqiy ong keng tushuncha bo'lib , jamiyatda huquqiy normalarni qabul qilish, ularni turmushda qo'llash , huquq to'g'risida bilimlarning ya'ni huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya to'g'risidagi murakkab ijtimoiy vazifalarni o'z ichiga oladi . Qisqacha aytganda huquqiy ongsiz , huquqiy madaniyat mavjud bo'la olmaydi .

Jamiyatimizda huquqiy madaniyatning o'рни beqiyosdir . U hozirgi rivojlanib borayotgan davlatimiz mezonini hisoblanadi . Shuning uchun ham , jamiyat hayotida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish , qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi . Bu nafaqat rivojlanish sharti , balki demokratik davlatlarning eng asosiy shartidir . So'ngi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish , jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Lekin shunga qaramasdan ham , inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga , aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga , jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda .

Xususan , huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti . Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni aybi bor deb qaralib kelindi, lekin afsuski , bu masalada nafaqat organlar balki oila, mahalla , fuqarolik jamiyati, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa institutlarning ham aybi bor . Chunki ular ham bu masalaga jiddiy yondashmagan . Masalan quyidagi ishlarga e'tibor uncha berilmagan , ya'ni yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan huquqiy imunitetni shakllantirish , har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat , milliy qadriyatlarga sadoqat , huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hissini uyg'otish borasida kompleks tarzida yondashilmagan. Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarining umumiy tusda belgilanganligi , hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi , jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi . Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi , ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi shuningdek , ayrim davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi , mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilish holatlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari , hozirgi globallashtirish ilmiy texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni yangi usullaridan , targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan , xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmaganini ko'rsatadi . Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi jamiyatda huquqning ustuvorligi hamda huquqiy davlat poydevori hisoblanadi. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish , huquqbuzarliklarning oldini olish , jinoyatchilikga qarshi kurashishning zaruriy talabidir . Haqiqatdan ham shunday huquqiy imunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan g'ayriqonuniy g'oyalar , qarashlar , qonunga xilof xatti-harakatlar o'z ta'sirini ko'rsatolmaydi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat , inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi . “Nima yaxshi-yu , nima yomonligini” tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik , huquqiy yetuklik yordam beradi.

Yuqorida aytib utganimizdek so'ngi 4 yil ichida milliy huquq tizimida juda katta islohotlar amalga oshirildi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilandi . Xususan , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 9-yanvarida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi” 5618-sonli farmoni qabul qilindi. Shuningdek, ushbu farmon ijrosi uchun “Yo'l xaritasi” ishlab chiqildi , va unga ko'ra Prezident tomonidan ushbu ishlarga ma'sul etib Adliya vazirligi belgilandi. Shuningdek , quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi .

Aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar , qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish.

Fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir”.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda , eng avvalo ta'lim – tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish , maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab , aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish , shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish .

Yosh avlod ongiga huquq va burch , halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish .

Davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish , ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish .

Shu kabi yana bir qator vazifalar belgilandi. Keyin malakali yuridik kadrlar tayyorlash maqsadida , har bir viloyatlarda yuridik texnikumlar , yuridik fakultetlar ochilmoqda. Bilamizki yaqinda ya’ni 2023-yilda 30-aprelda yangi tahrirdagi konstitutsiya qabul qilindi. Ushbu konstitutsiyamiz referendum orqali qabul qilindi , unda xalqimiz faol qatnashdi ya’ni bu shuni anglatadiki amalga oshirilgan islohotlar asta – sekin o’z natijasini ko’rsatmoqda . Fuqarolar o’zining siyosiy huquqlaridan foydalanishdi ya’ni ular mamlakat hayotiga befarq emas .

“Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan g’oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo’lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo’llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ’ibot tadbirlarini tashkil qilish , davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

Adliya vazirligi tomonidan aholi o’rtasida huquqni yanada targ’ibot qilish maqsadida “Huquqiy targ’ibot ishlari a’lochisi” nomli ko’krak nishoni ta’sis etildi . Belgilab qo’yilishicha , jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish , - shaxs – oila - mahalla - ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat , prinsipi bo’yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi .

Xulosa qilib aytganda , huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma-bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi . Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg’usini rivojlanishiga olib keldi . Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko’tarilmoqda , shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi , huquqiy madaniyati , ta’lim-tarbiyasi , huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish , yoshlarning huquq sohasiga bo’lgan qiziqishlarini oshirish , ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi . Jamiyatda o’z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og’ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. <https://Lex.uz>
2. <https://arxiv.uz>
3. <https://elibrary.ru>
4. <https://exujjat.tdpu.uz>
5. <https://advice.uz>
6. <https://vikipediya>
7. “Yuridik adabiyotlar Publish” 2020-y,2021-y. 8-mavzu:Huquqiy ong va huquqiy madaniyat (108-bet)
8. “Yuridik adabiyotlar Publish” 2020-y,2021-y,2022-y. X bob : Siyosiy huquqlar (120-bet)
9. Lex.uz.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-sonli farmoni .